



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI, XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI VA TASHQI QARZI



Bu qanday nashr?

Ushbu nashr 2025-yil uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013-y.) muvofiq tayyorlangan.

Ma'lumotlar qaysi sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2026-yil 31-mart holatiga dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumotlarni qayerdan olish mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha tahliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

Nashrga taalluqli savol va takliflar bo'yicha qanday murojaat qilish mumkin?

O.O. Tojiddinov

Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti direktori

(+998) 71 212-60-38

o.tojiddinov@cbu.uz

R.M. Mirzaaxmedov

Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti direktori o'rinbosari - To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i

(+998) 71 212-60-99

r.mirzaahmedov@cbu.uz

Sh.X. Xayitboyev

To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

(+998) 71 212-60-42

sh.khayitboev@cbu.uz

Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda val@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

QISQACHA SHARH

2025-yilda jahon miqyosida saqlanib qolgan geosiyosiy keskinliklar, tashqi savdo fragmentatsiyasi va yuqori iqtisodiy noaniqliklarga qaramasdan, O'zbekistonning to'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqei ko'rsatkichlarida ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Bu, asosan, tashqi savdo hajmlarining oshishi, xalqaro moliya bozorlaridan mablag'lar jalb etilishining faollashishi, tashqi mehnat migratsiyasi yo'nalishlarining kengayishi hamda xalqaro pul o'tkazmalari oqimlarining ko'payishi bilan izohlanadi.


2025-yilda **joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi** YalMga nisbatan **3,9 foizni** (5,8 mlrd dollar) tashkil etib, 2024 yildagi 4,7 foizga (5,7 mlrd dollar) nisbatan 0,8 foiz bandga qisqardi.

Hisobot davrida eksportning importga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, import hajmining eksportga nisbatan katta bo'lganligi sababli tovar va xizmatlar savdosi balansi manfiy shakllanib, 19,9 mlrd dollarni tashkil etdi (1-diagramma).

Ikkilamchi daromadlar bo'yicha joriy transfertlarning sof hajmi sezilarli darajada oshishi natijasida mazkur komponent 13,7 mlrd dollar miqdorida ijobiy saldo bilan shakllanib, birlamchi daromadlar bo'yicha sof tushumlar (371,4 mln dollar) bilan birgalikda savdo balansidagi manfiy saldoni qisman qopladi.


1-diagramma

Joriy operatsiyalar hisobi saldos



Joriy operatsiyalar hisobi komponentlari saldos

(mlrd dollar)




Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

2025-yilda xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining yuqori darajada saqlanib qolishi, shuningdek eksportbop mahsulotlarga tashqi talabning ortishi va norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar ko'lamining kengayishi ta'sirida **jami eksport hajmi 2024-yilga nisbatan 23 foizga o'sib, 32,3 mlrd dollarni tashkil etdi (oltinsiz eksport – 22,5 mlrd dollar, o'sish 20 foiz).**


Bunda, tovarlar eksporti 2024-yilga nisbatan 17 foizga ko'payib, 23 mlrd dollarni tashkil qildi (oltinsiz - 13,2 mlrd dollar, o'sish 9 foiz) (2-diagramma).

2-diagramma. Tovar va xizmatlar savdosi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

3-diagramma. Jahon xomashyo narxlari



Manba: Jahon banki va XVJ ma'lumolari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari

2025-yilda tovarlar eksporti hajmlarining shakllanishiga ishlab chiqarish hajmlaridagi o'zgarishlar bilan bir qatorda jahon bozorlarida xomashyo narxlarining dinamikasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Xususan, asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon bozoridagi narxlarini tahliliga ko'ra, 2025-yil davomida oltin narxi yil boshiga nisbatan 63 foizga, kumush narxi 2 barobarga, mis narxi 32 foizga va uran narxi 5 foizga oshgan. Shu bilan birga, to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi hisoblangan paxtaning jahon narxi 7 foizga pasaygan (3-diagramma).

Hisobot davrida xizmatlar eksporti 42 foizga o'sib, 9,3 mlrd dollarni tashkil etdi. Bunda asosan O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar sonining ortishi, mintaqadagi transport koridorlaridan foydalanish ko'lamining kengayishi hamda axborot texnologiyalari (IT) sohasidagi tarkibiy islohotlar sababli ushbu sohalar bilan bog'liq xizmatlar eksport hajmining oshishi asosiy omillardan bo'ldi.

2025-yilda **jami import** hajmi 2024-yilga nisbatan **20 foizga** ko'payib, **52,2 mlrd** dollarga yetdi. Bu mamlakatda investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida mashina va uskunalari, kimyoviy va mineral mahsulotlar, shuningdek maishiy va oziq-ovqat tovarlari hamda boshqa xomashyo importining davom etishi bilan izohlanadi. Shuningdek, importning eng yuqori hajmi o'tgan yilning IV choragiga to'g'ri kelib, 15,3 mlrd dollarni tashkil etdi.

Hisobot davrida tovarlar importi hajmi 2024-yilga nisbatan 16 foizga o'sib, 38,6 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, xizmatlar importi 30 foizga ko'payib, 13,6 mlrd dollarga yetdi (*2-diagramma*).

2025-yilda mehnat muhojirlari faoliyat yuritayotgan an'anaviy mamlakatlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning yuqori darajada saqlanib qolishi, ish haqi miqdorining o'sishi hamda mehnat migratsiyasi geografiasining diversifikatsiyasi birlamchi va ikkilamchi daromadlar bo'yicha tushumlarning ortishiga xizmat qildi¹. Shu bilan birga, norezidentlarning investitsiya daromadlari (*dividendlar, reinvestitsiya va foiz to'lovlari*)ning ko'payishi birlamchi daromadlar bo'yicha to'lovlar hajmini oshiruvchi omil bo'ldi.

Natijada, **birlamchi va ikkilamchi daromadlar balansi** musbat saldo bilan shakllanib, mos ravishda 371 mln va 13,7 mlrd dollarni tashkil etgan holda savdo balansi taqchilligini qisman qopladi.

Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi moliyaviy hisob doirasida jalb qilingan kapital tushumlari, xususan to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar hamda boshqa moliyaviy manbalar hisobiga moliyalashtirildi.

Jumladan, 2025-yil davomida mamlakatga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**² 2024-yilga nisbatan qariyb 1,5 barobarga o'sib, 4,4 mlrd dollarga teng bo'ldi (*YaIMga nisbatan 3 foiz*) (*4-diagramma*).

Bunda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tarkibida kapitalga sof qo'yilmalar va xorijiy investorlardan jalb qilingan qarz mablag'lari hajmining oshishi bilan birga xorijiy investorlar tomonidan daromadlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga qayta investitsiya qilinishi (*reinvestitsiya*) ham sezilarli darajada ko'paydi.

Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi asosan xalqaro obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga 40 foizga ko'payib, 4,4 mlrd dollarni tashkil qildi (*YaIMga nisbatan 3 foiz*).


2025-yilda xalqaro moliya bozorlarida hukumat tomonidan 3 ta, banklar tomonidan 7 ta hamda nomoliyaviy korxonalar tomonidan 4 ta yangi xalqaro obligatsiyalar joylashtirildi. Shu bilan birga, 2 ta yevroobligatsiya bo'yicha majburiyatlar to'liq so'ndirildi.

¹ Transchegaraviy pul o'tkazmalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar Markaziy bank veb-saytida e'lon qilingan 2025 yil uchun "Xalqaro migratsiya va jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari sharhi" dan olinishi mumkin. <https://cbu.uz/upload/iblock/5b2/5d64ar05r47x0pk5egxjwouhlcj8ge9v/1.-Sharh-migratsiya-UZB.pdf>

² To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009 y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'rtasidagi saldo) aks ettiriladi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2025-yil yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosi **9,3 mlrd** dollarni tashkil etdi (5-diagramma).


4-diagramma. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy (TTXI) va portfel (PI) investitsiyalarning sof jalb qilinishi
(majburiyatlar)



- TTXI, mlrd. doll. (chap shkala)
- PI, mlrd. doll. (chap shkala)
- TTXI, YalMga nisbatan foizda (o'ng shkala)
- PI, YalMga nisbatan foizda (o'ng shkala)

5-diagramma. Moliyaviy hisob va komponentlari saldosi

(mlrd dollar)



- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (sof)
- Portfel investitsiyalar (sof)
- Moliyaviy derivativlar (sof)
- Boshqa investitsiyalar (sof)
- Zaxira aktivlari
- Moliyaviy hisob saldosi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

2025-yil yakuniga ko'ra, to'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsion o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning sof xalqaro investitsiyaviy mavqei hisobot yili boshiga nisbatan **2 barobarga** mustahkamlanib, 2026-yil 1-yanvar holatiga **19,1 mlrd** dollarga yetdi.

Bunda rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hisobot yili boshiga nisbatan 33 foizga (32 mlrd dollarga) oshib, 128,4 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, tashqi majburiyatlari 26 foizga (22,4 mlrd dollarga) ko'payib, 109,3 mlrd dollarga yetdi.

Aktivlar hajmining o'sishi asosan xalqaro zaxiralar hisobiga to'g'ri keldi. Xususan, oltinning jahon bozorida narxi yuqori sur'atlarda oshishi ta'sirida **xalqaro zaxiralar qoldig'i** 2025-yil boshiga nisbatan **25,1 mlrd** dollarga ko'payib, 2026-yil 1-yanvar holatiga **66,3 mlrd** dollarni tashkil etdi. Shuningdek, zaxira aktivlarining xorijiy valyutadagi qismi ham 1,9 mlrd dollarga oshdi.

2026-yil 1-yanvar holatiga xorijdan jalb qilingan davlat tashqi qarzi qoldig'i 40,5 mlrd dollarni³ tashkil etdi. Davlat tashqi qarzi qoldig'ining YaIMga nisbati pasayish tendensiyasini saqlab qolib, hisobot yili yakuniga ko'ra 2024-yilga nisbatan 0,4 foiz bandga kamayib, 27,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur qarz mablag'lari to'liq uzoq muddatli va asosan imtiyozli shartlar asosida jalb qilingan.

Xo'jalik subyektlari va banklar tomonidan norezidentlardan jalb qilingan korporativ kredit va qarzar qoldig'i 41,7 mlrd dollarni tashkil etdi (*YaIMga nisbatan 28,4 foiz*). Mazkur mablag'larning 92 foizdan ortig'i uzoq muddatli shartlarda jalb qilingan.

Korporativ tashqi qarz tarkibida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritgan xorijiy investorlardan jalb qilingan qarz mablag'lari qoldig'i 6,5 mlrd dollarni, xalqaro obligatsiyalar joylashtirish orqali jalb qilingan mablag'lar qoldig'i esa 7,3 mlrd dollarni tashkil etdi. Qolgan qismi esa xususiy sektor, jumladan xo'jalik subyektlari va banklar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, aylanma mablag'larni to'ldirish va biznes faoliyatini kengaytirish maqsadlarida davlat kafolatisiz jalb qilingan kredit va qarzar hisobiga shakllandi.

Ma'lumot uchun: XVJ hamda xalqaro reyting agentliklari bayonotlarida O'zbekistonning tashqi qarz yuki o'rtacha darajada ekanligi (asosan imtiyozli shartlarda olingan) e'tirof etilgan.

Bunda, korporativ tashqi qarz bo'yicha davlat majburiyati mavjud emas, ular bo'yicha to'lovlar xo'jalik subyektlari hamda banklarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

³ XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq qarz instrumentlari bo'yicha qoldiq hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

2026-YIL UCHUN KUTILMALAR

2025-yil uchun O'zbekiston tashqi sektor statistikasining yakuniy ko'rsatkichlari, mamlakatimiz va uning asosiy savdo hamkorlarida joriy va keyingi yillardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari, xalqaro moliya va tovar-xomashyo bozorlari konyunkturasi, mehnat va kapital migratsiyasi, tashqi savdo va logistika sohalaridagi o'zgarishlar dinamikasi bo'yicha ekspertlarning kutilma va baholashlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi to'lov balansining 2026-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari shakllantirildi⁴.

O'zbekiston eksport tovarlariga tashqi yalpi talabning shakllanishi asosiy savdo hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy faollik darajasi, tashqi savdodagi fragmentatsiya jarayonlari hamda jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklarning saqlanib qolishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Joriy yilning yanvar oyidagi Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan jahon mamlakatlari, shu jumladan O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha prognozlar qayta ko'rib chiqilgan.

Jumladan, ushbu prognozlarga ko'ra, 2026-yilda Xitoy iqtisodiyoti 4,5 foizga (2025 y. 5%), Rossiya 0,8 foizga (2025 y. 0,6%), Turkiya 4,2 foizga (2025 y. 4,1%) va Qozog'iston 4,4 foizga (2025 y. 6,2%) o'sishi kutilmoqda⁵.

O'zbekistonning asosiy eksportbop mahsulotlari bo'yicha jahon narxlarining nisbatan ijobiy shakllanishi kutilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda xalqaro savdo siyosatidagi o'zgarishlar, geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi va global moliyaviy sharoitlar bilan bog'liq noaniqliklar fonida oltin narxi tarixiy yuqori darajada – 4 500-5 000 dollar (tr/uns) atrofida shakllanmoqda. Xalqaro bozorlarda unga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli mazkur metall narxining yil oxiriga qadar yuqori darajada saqlanib qolishi kutilmoqda⁶.

Kumush va mis narxlarining 2025-yilda kuzatilgan o'sish trendi joriy yil davomida ham saqlanib qolishi bo'yicha kutilmalar mavjud⁷. Joriy yilning dastlabki ikki oyida mazkur metallarning narxi yil boshiga nisbatan mos ravishda 31 foiz va 10 foizga o'sdi.

Shuningdek, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi, kimyo va oziq-ovqat sanoati hamda metallurgiya sohalarida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish hajmlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari joriy yilda ham saqlanib qolishi kutilmoqda.

⁴ 2025 yil yakunlari asosida shakllantirilgan dastlabki prognozlar yangilandi. Shuningdek, 2026 yil davomida ichki va tashqi omillarning rivojlanishi hamda iqtisodiy kutilmalarning o'zgarishidan kelib chiqib, prognoz ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqib boriladi.

⁵ Jahon iqtisodiy istiqbollari, XVJ, 2026 y. yanvar.

⁶ Oltin talab trendi, Jahon oltin uyushmasi, 2026 y. yanvar.

⁷ Xomashyo bozorlari istiqbollari, Jahon banki, 2025 y. oktabr.

2026-yilda turizm, transport va logistika hamda kommunikatsiya, kompyuter va axborot texnologiyalari (IT) sohasi xizmatlar eksportining asosiy drayverlari sifatida saqlanib qolishi kutilmoqda. Ushbu sohalarda islohotlarning izchil davom ettirilishi norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi oshishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi mahalliy tovarlarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida 2026-yilda **jami eksport** hajmi o'tgan yilga nisbatan 20-22 foizga o'sishi (*oltinsiz 18-20%*) prognoz qilinmoqda.

Joriy yilda yuqori investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabi import dinamikasini belgilovchi omillardan bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyoti real hisobda 5,5-6,5 foizga va yakuniy iste'mol xarajatlari 6-6,5 foizga o'sishi kutilmoqda⁸.

Ushbu jarayonlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha investitsiya dasturlari doirasida mashina, uskuna va mexanizmlar, transport vositalari, oziq-ovqat, kimyo va metallurgiya sanoati mahsulotlari hamda boshqa xomashyolar importi o'sishida namoyon bo'lishi mumkin.

Mazkur omillar ta'sirida 2026-yilda **jami import** hajmi 2025 yilga nisbatan 16-18 foizga ko'payishi prognoz qilinmoqda.

2026-yilda aksariyat mehnat muhojirlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari kutilmalarga nisbatan pastroq shakllanishiga qaramasdan, ishchi kuchiga bo'lgan talab va ish haqlarining yuqori darajada saqlanib qolishi mehnat muhojirlari daromadlarining oshishini rag'batlantirishi mumkin.

Shuningdek, hukumatlararo kelishuvlar doirasida mehnat muhojirlarini rivojlangan mamlakatlarga yuborish borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi davom etishini inobatga olib, O'zbekistonga **xalqaro pul o'tkazmalari** hajmi 14-16 foizga oshishi kutilmoqda.

2024-yilning ikkinchi yarmidan boshlab global moliyaviy sharoitlarni bosqichma-bosqich yumshatish jarayonlari ortidan xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalari pasayishi kuzatildi (*SOFR stavkasi o'rtacha 5,3 foizdan 4 foizgacha tushgan*). Joriy yilda global inflyatsion bosim kuchaymagan taqdirda, stavkalarining nisbatan past darajada shakllanishi norezident-lardan suzuvchan foiz stavkalari asosida jalb qilingan kredit va qarzlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek yangi qarzdorliklar jalb qilish bo'yicha xarajatlarning kamayishiga xizmat qilishi mumkin.

2026-yilda savdo balansi manfiy saldosi qisman qoplab beruvchi **ikkilamchi daromadlar** komponentining ijobiy saldosi o'tgan yilga nisbatan 17-19 foizga oshishi prognoz qilinmoqda.

⁸ Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashri, 2025-yil.

Yuqoridagi omillar ta'sirida, **2026-yil** yakuni bilan to'lov balansi **joriy operatsiyalari hisobining** manfiy saldosini YalMning **3-3,5 foizi** atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

2026-yilda ham joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi asosan **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va portfel investitsiyalarning** sof kiritilishi hamda boshqa manbalar hisobiga moliyalashtirilishi kutilmoqda.

Ishbilarmonlik faolligining yuqori darajada saqlanishi va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi natijasida kapitalga sof qo'yilmalar, reinvestitsiyalar va xorijiy bosh kompaniyalardan mablag'lar hajmining o'sishi hisobiga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** sof kirimi YalMga nisbatan 2,5-3 foiz atrofida shakllanishi mumkin.

Hukumat, banklar va nomoliyaviy korxonalar tomonidan xalqaro kapital bozorlarida yangi yevroobligatsiyalar chiqarilishi orqali mablag'lar kirimi hamda amaldagi majburiyatlar bo'yicha to'lovlar grafigidan kelib chiqib, **portfel investitsiyalar** sof kirimi YalMga nisbatan 2-3 foiz darajasida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Shu bilan birga, davlat sektori, banklar va boshqa sektorlar bo'yicha valyuta va depozitlar, tashqi qarz hamda savdo kreditlari dinamikasi, to'lovlar jadvali va moliyalashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, **boshqa investitsiyalar komponenti** bo'yicha sof kirimi YalMga nisbatan taxminan 1 foiz atrofida shakllanishi kutilmoqda.

Yuqoridagi omillar yig'indisi natijasida 2026 yilda **moliyaviy hisob** (*xalqaro zaxira aktivlarini hisobga olmaganda*) YalMga nisbatan **5-6 foiz** miqdorida manfiy saldo bilan shakllanishi prognoz qilinmoqda.

Markaziy bank O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

1-ilova. 2023-2025-yillari uchun to'lov balansi*(tahliliy ko'rinishi)**(mln dollar)*

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil
A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi	-7 797,1	-5 723,1	-5 784,2
Tovarlar, kredit (eksport)	19 616,6	19 626,1	23 024,9
Tovarlar, debet (import)	34 475,6	33 160,0	38 546,5
Xizmatlar, kredit (eksport)	5 433,0	6 547,2	9 274,1
Xizmatlar, debet (import)	8 170,8	10 464,2	13 635,5
<i>Savdo balansi saldosi</i>	<i>-17 596,8</i>	<i>-17 450,9</i>	<i>-19 883,0</i>
Birlamchi daromadlar, kredit	5 317,6	5 667,4	6 428,8
Birlamchi daromadlar, debet	4 323,1	4 518,8	6 057,4
<i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi</i>	<i>-16 602,2</i>	<i>-16 302,2</i>	<i>-19 511,6</i>
Ikkilamchi daromadlar, kredit	9 685,4	11 595,1	15 143,1
Ikkilamchi daromadlar, debet	880,2	1 015,9	1 415,7
B. Kapital operatsiyalari hisobi	8,4	8,3	13,0
Kapital operatsiyalar hisobi, kredit	8,4	8,3	13,0
Kapital operatsiyalar hisobi, debet	0,0	0,0	0,0
<i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosini</i>	<i>-7 788,6</i>	<i>-5 714,8</i>	<i>-5 771,2</i>
C. Moliyaviy hisob (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	-6 839,5	-7 263,3	-11 312,2
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar	11,7	36,7	158,2
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar	2 156,4	2 974,7	4 398,4
Portfel investitsiyalar, aktivlar	0,5	0,3	0,1
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	0,5	0,3	0,1
Qarz instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Portfel investitsiyalar, majburiyatlar	994,8	3 121,7	4 380,8
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	23,2	-4,1	16,9
Qarz instrumentlari	971,6	3 125,8	4 363,9
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	1,6	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar	-1,6	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Boshqa investitsiyalar, aktivlar	3 955,8	5 466,2	7 210,5
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,4	5,0	13,2
Qarz instrumentlari	3 955,4	5 461,2	7 197,3
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	-1 206,2	897,9	1 401,6
Davlat boshqaruv sektori	-18,1	-15,3	-25,3
Boshqa sektorlar	5 179,7	4 578,5	5 821,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	5 179,7	4 578,5	5 821,0
Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar	7 657,9	6 670,0	9 901,7
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
MQH taqsimlanishi	2,4	-1,4	-1,0
Qarz instrumentlari	7 655,6	6 671,4	9 902,7
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	871,8	767,2	2 467,8
Davlat boshqaruv sektori	3 421,5	4 601,7	4 620,7
Boshqa sektorlar	3 362,3	1 302,5	2 814,2
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	14,4	8,3	-1,6
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	3 347,9	1 294,2	2 815,8
D. Sof xatolar va yo'qotishlar	-1 741,8	-2 159,8	-3 518,0
E. Umumiy balans	2 690,9	611,4	-2 023,0
F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar	-2 690,9	-611,4	2 023,0
Zaxira aktivlari	-2 751,8	-734,3	1 949,0
XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari)	-60,9	-122,9	-74,0
Boshqa moliyalashtirish	0,0	0,0	0,0

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko'rinishni aks ettiradi.

2-ilova. 2023-2025 yillar yakuniga ko'ra xalqaro investitsiyaviy mavqe
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.01.2026y.
Aktivlar	84 883,5	96 409,6	128 407,0
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	209,9	243,8	408,8
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	37,1	69,0	234,0
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	37,1	69,0	234,0
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	172,8	174,8	174,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,5	2,6	2,6
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	170,4	172,2	172,2
Portfel investitsiyalar	2,9	3,1	3,5
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,9	3,1	3,5
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1,1	1,1	1,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	1,8	2,0	2,3
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	0,0	0,0	0,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	0,0	0,0	0,0
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiolari	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.01.2026y.
Boshqa investitsiyalar	50 106,0	54 981,1	61 683,0
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	2,0	7,0	20,2
Qarz instrumentlari	50 104,0	54 974,0	61 662,8
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	3 242,7	4 061,9	5 589,7
Davlat boshqaruvi sektori	4,8	2,8	4,8
Boshqa sektorlar	46 856,5	50 909,4	56 068,2
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Zaxira aktivlari	34 564,6	41 181,6	66 311,8
Monetar oltin	24 632,2	32 036,7	55 092,4
Qarz olishlarning maxsus huquqlari	563,0	547,3	574,8
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	9 369,5	8 597,7	10 644,5
Majburiyatlar	72 710,0	86 940,5	109 301,4
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	14 866,9	20 518,7	26 039,8
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	11 356,8	15 731,7	19 566,2
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	11 356,8	15 731,7	19 566,2
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	3 510,1	4 787,0	6 473,6
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	3 217,4	4 329,2	5 498,4
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	292,7	457,8	975,2

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.01.2026y.
Portfel investitsiyalar	5 295,5	8 428,9	13 747,7
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	123,7	117,2	143,1
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	57,5	75,1	93,2
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	66,3	42,1	49,9
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	1,7	1,7	2,6
Qarz qimmatli qog'ozlari	5 171,8	8 311,7	13 604,6
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1 027,7	2 340,4	3 278,8
Davlat boshqaruvi sektori	3 284,9	4 049,9	6 290,4
Boshqa sektorlar	859,2	1 921,4	4 035,4
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyalari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	52 547,6	57 992,9	69 514,0
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)	1 068,8	1 037,4	1 088,3
Boshqa qarz instrumentlari	51 478,9	56 955,5	68 425,6
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	11 215,2	11 680,7	14 752,2
Davlat boshqaruvi sektori	21 353,4	25 330,8	30 302,6
Boshqa sektorlar	18 910,3	19 944,0	23 370,7
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	114,1	119,3	129,5
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe	12 173,5	9 469,1	19 105,6